



XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 6-yanvar

VII-21-3-2-0-K/26

Buxoro viloyati

Buxoro viloyatida 2026-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-98-son Farmoni 3-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 33 va 34-bandlariga asosan davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara haqining 2026-yil uchun eng kam miqdordagi stavkalarini belgilash maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buxoro viloyatida 2026-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari yuzasidan Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i F.Ergashevning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 23-iyuldagi 01/26-18/652-sonli, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 10-dekabrda 4233/01-12-sonli hamda 2025-yil 24-dekabrda 4364/01-12-sonli xatlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, viloyat soliq boshqarmasi, viloyat statistika boshqarmasi, Savdo-Sanoat Palatasi viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda 2026-yilda bir kv.m uchun ijara stavkasi miqdori bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

viloyatning ma'muriy markazi (*Buxoro shahri*) hamda ma'muriy markazidan tashqari (*tumanlar va Kogon shahar*) hududlarida joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2026-yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (*iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha*) **1-ilovaga**;

sanaot zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari **2-ilovaga**;

bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (*ijara to'lovining tayanch stavkasi*) hisoblab chiqishda qo'llanadigan hudud zonalari bo'yicha koeffitsiyentlar **3-ilovaga**;

radio, uyali va peydjing aloqa antennalari (*texnik uskunalari*) o'rnatilganda foydalanadigan maydon uchun to'lanadigan ijara haqining hisoblanishi tartibi **4-ilovaga**;

ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Budjetdan moliyalashtiriladigan davlat muassasalari va ularning hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, qo'shma loyihalarni amalga oshirish guruhlarini davlat mulki bo'lgan binolar va inshootlarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi mumkinligi (*qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno*) belgilab qo'yilsin.

5. Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (F.Ergashev) viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), shahar va tuman hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

6. Viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o'tkazsin va bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo'yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarini taqdim etib borsin.

7. Viloyat hokimining 2025-yil 28-yanvardagi "Buxoro viloyatida 2025-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng

kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 46-2-0-Q/25-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror "Buxoronoma" va "Buxarskiy vestnik" gazetalarida e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi



**ASHUROV
JAMOL
RAJABBOYEVICH**

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-21-3-2-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Viloyatda joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2026-yilda 1 kv.metr uchun
qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

so'mda

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	Viloyatning ma'muriy markazi (Buxoro shahri) bo'yicha 2026-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari <i>(QOS bilan birga)</i>	Viloyatning ma'muriy markazidan tashqari (tumanlar va Kogon shahar) hududlari bo'yicha 2026-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari <i>(QOS bilan birga)</i>
Ishlab chiqarish			
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	17 800	12 500
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	56 300	40 800
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	17 800	12 500
Qurilish sanoati			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	17 000	12 000
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	56 500	36 700
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	89 900	51 400
Yengil sanoat			
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	17 800	12 500
Oziq-ovqat sanoati			
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	17 700	12 500
9	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	50 100	36 000
10	Sut mahsulotlari sanoati	34 700	25 000
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	50 100	31 200
Qishloq xo'jaligi			
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	7 101 800	5 086 400
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	17 711 100	12 211 100
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 500	6 150
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun *	15 901 800	10 586 400

16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 616 500	3 306 400
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	17 600	12 430
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	9 020	4 455
19	Avtomobillarni yuvish	53 354	33 578
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	58 195	43 363
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	64 890	46 968
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	29 866	21 691
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	56 353	40 221
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	42 837	30 956
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	31 137	22 470
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	38 413	27 820
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	35 530	25 300
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	155 940	111 780
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	49 700	35 700
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	127 700	91 300
31	Chakana savdo	49 700	35 700
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	120 700	98 700
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	49 700	35 700
34	Kitob do'konlari	6 800	5 000
35	Lombardlar	64 200	45 900
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	49 268	35 425
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	73 902	53 083
38	Mehmonxona xo'jaligi	56 353	40 221
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	43 818	30 738
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	29 900	21 275
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	18 400	12 995
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	41 285	29 900

43	Poligrafiya sanoati	42 837	35 425
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	39 131	28 340
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	35 207	25 070
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	8 855	6 440
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	42 401	30 738
48	Hammomlar	89 470	63 940
49	Saunalar va basseynlar	168 950	121 099
Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	53 000	41 400
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	42 000	30 400
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	99 700	77 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	77 800	55 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	88 700	63 400
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	56 800	40 500
Sog'liqni saqlash			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	33 269	23 690
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	67 676	49 078
58	Tibbiy asbob uskunlari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	123 100	103 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunlari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100	104 100
60	Fitobar	24 500	17 600
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	29 542	20 988
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	35 500	25 300
63	Ijtimoiy-dorixonalar	25 300	16 500
Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	18 216	12 857
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	17 600	12 400
66	Fitnes va yengil atletika zallari	18 216	12 857
Ta'lim			
67	<i>Nodavlat ta'lim tashkilotlari</i>		
	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	14 850	10 705

	Oliy va o'rta-maxsus ta'lim ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	29 581	20 988
	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	13 015	9 755
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	23 060	17 160
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	34 800	25 000
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	18 216	12 857
71	Madaniyat va san'at	49 700	35 700
72	Ko'rgazmalar	38 300	28 700
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	35 500	25 300
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	56 800	40 500
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	21 500	15 200
76	Avtomaktablar	31 500	18 000
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	17 600	12 400
Moliya-kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	49 700	35 700
79	Auditorlik faoliyati	49 700	33 400
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	77 800	55 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	49 700	35 700
82	Bankomatlar	711 700	509 600
83	Paynetlar	142 600	102 000
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	142 600	102 000
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	60 700	49 700
86	Bank xizmatlari ofisi	49 700	35 700
87	Sug'urta faoliyati	42 700	35 700
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	77 800	55 800
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	49 700	35 700
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	42 700	31 000
91	Jamoat birlashmalari	14 300	10 000
92	Omborxonalar	49 700	35 700
93	Davlat korxonalar va muassasalari	21 500	15 200
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	77 800	55 800
95	Arxiv xizmati	21 500	12 700
96	Tahririyat va nashriyotlar	28 600	20 300
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	28 600	20 300

98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	35 500	25 300
----	------------------------------------------------	--------	--------

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-21-3-2-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

**Sanaot zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda
1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

so'mda

T/R	Hudud nomi	<i>(respublika tuman va shaharlari toifalari bo'yicha) (QQS bilan birga)</i>				
		1-toifa (1 kv.m)	2-toifa (1 kv.m)	3-toifa (1 kv.m)	4-toifa (1 kv.m)	5-toifa (1 kv.m)
1.	Buxoro	132 000	112 200	92 400	72 600	66 000

**Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi)
hisoblab chiqishda qo'llanadigan hudud zonalari bo'yicha koeffitsiyentlar**

Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz):

t/r	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar*	Hududiy zonalar koeffitsiyentlari
1	Buxoro shahri	1	3
2	Kogon shahri	2	2,5
3	Kogon tumani	3	2
4	Qorovulbozor tumani	3	2
5	Romitan tumani	3	2
6	Buxoro tumani	3	2
7	Qorako'l tumani	3	2
8	G'ijduvon tumani	2	2,5
9	Vobkent tumani	3	2
10	Jondor tumani	3	2
11	Olot tumani	3	2
12	Peshko' tumani	3	2
13	Shofirkon tumani	3	2

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi)
hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko), \text{ bunda koeffitsiyentlar:}$$

Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent - (Kq):

davlat mulki obyektini yaxlit holatda ijaraga olganda – 1,5

davlat mulki obyektini bir qismini ijaraga olganda (yertulasi, yarim yer to'las, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi, taqab qurilgan bino) – 1,0

obyektga birlashtirilgan yer maydoni, beton (asfalt) maydoni bo'yicha – 0,7

Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti – (Kh) :

yer maydoni mavjud bo'lganda – 0,7

daxliz(koridor) mavjud bo'lganda – 0,5

Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti – (Ko): (asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo‘llariga chiqishda joylashish va boshqalar):

asosiy qatnov yo‘llarida joylashgani – 0,5

ikkinchi darajali transport qatnovi yo‘llariga chiqish joyi – 0,4

**Radio, uyali va peydjning aloqa antennalari (texnik uskunalar)
oʻrnatilganda foydalanadigan maydon uchun toʻlanadigan
ijara haqining hisoblanishi tartibi**

1. Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, boloxona (shuningdek davlat mulki boʻlgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida oʻrnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

T_s - bir yilga bir kv.metr uchun ijara toʻlovi tayanch stavkasi

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka

K_z - hududiy zona koeffitsiyenti

K_q - 0,7

K_h - 0

K_o - 0,5

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek alohida ajratilgan maydonlarga oʻrnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

T_s - bir yilga bir kv.metr uchun ijara toʻlovi tayanch stavkasi

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarining umumiy perimetri boʻyicha hisoblanadi)

K_z - hududiy zona koeffitsiyenti

K_q - 0

K_h - 0,7

K_o - 0,5

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar oʻrnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

T_s - bir yilga bir kv.metr uchun ijara toʻlovi tayanch stavkasi

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka

K_z - hududiy zona koeffitsiyenti

K_q - 1,0

K_o - 0,5

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-21-3-2-0-K/26 -son qaroriga
5-ilova

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlarning hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

Bunda:

T_s — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

E_s — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

K_z — hududiy zonalar koeffitsienti;

K_q — Qurilish turi bo'yicha koeffitsient;

K_h — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

K_o — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsient (K_q), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (K_h) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (K_o)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsientlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- **Hududiy zonalar koeffitsienti (K_z)** – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsient;

- **Qurilish turi bo'yicha koeffitsient (K_q)** – davlat mulki obyektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yertulasi, yarim yer to'lasini, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga biriktirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsient.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsienti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yertulasi, yarim yer to'lasini, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki biriktirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan

balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koeffitsient ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh) - ushbu koeffitsient davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu koeffitsient qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- **Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko)** - ushbu koeffitsient obyekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko'chalarida joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.